

BUZG'UNCHI G'OYALARNING TURLARI VA TASNIFLARI

Abduxoliq Tashanov,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, f.f.n., dotsent

Buzg'unchi g'oyalarning turlari va tasniflari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar asosida g'oyalarning ijtimoiy ongga ta'siri, oqibatlaridan kelib chiqib, quyidagi buzg'unchilik mezonlarini ajratish mumkin:

- g'oyaning individga, uning jismoniy, ruhiy va axloqiy sog'ligiga, moddiy manfaatlariga, siyosiy, diniy, madaniy, oilaviy, fuqarolik huquqlariga, majburiyat va talablariga salbiy ta'siri;
- g'oyaning ijtimoiy guruhlar, institutlar va formal belgilar asosida qabul qilingan ijtimoiy-zaruriy aloqalarga munosabati, masalan, milliy, iqtisodiy, diniy, sinfiy, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlaridagi salbiy ta'siri;
- g'oyaning jamiyat iqtisodiy, texnologik va ilmiy taraqqiyotiga, demografik jarayonlarga, ijtimoiy muhofaza, transport va aloqa tizimiga munosabatiga salbiy ta'siri;
- g'oyaning madaniyat va madaniy qadriyatlarga, ilmiy va texnik yutuqlarga, etnosiyosiy, diniy yoki xalq an'analariga, ijtimoiy ta'minot va mehnat munosabatlari tizimiga salbiy ta'siri;
- g'oyaning davlat va xalqaro tashkilotlarga, hududiy yaxlitlik va milliy xavfsizligiga, ichki institutsional qurilishga salbiy ta'siri;
- g'oyaning ekologik muhitga, sotsiumning mavjudligini ta'minlaydigan zarur unsur va omillarga salbiy ta'siri.

Buzg'unchi g'oyalarni turli vaziyatlar, xususiyatlariga qarab ularning turlarini va tasnifini keltirish mumkin. Masalan, asosiy ta'limotlariga qarab, obykti, subyekti, yo'nalishlari, sabablari, oqibatlari, zamon va makon hamda boshqa jihatlari nazarda tutiladi.

Buzg'unchi g'oyalarni umumiy ko'rinishi, manbalariga ko'ra diniy va dunyoviy hamda aralash shakldagi ko'rinishga ajratish mumkin.

1) Diniy ko'rinishdagi buzg'unchi g'oyalar:

Din nomidan ish ko'ruvchi yoki diniy manbalarni noto'g'ri talqin qilish oqibatida vujudga kelgan diniy aqidaparastlik yoki dinga nisbat berilgan xristian fundamentalizmi, hinduiylik ekstremizmi, islom terrorizmi kabi buzg'unchi g'oyalar mavjud. Bunday qarashlar juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat, hududni tan olmagan, barcha dinlar doirasida rivojlangan. Bunday ko'rinishdagi qarashlarni buddizm, xristianlik, yahudiylik, islom, katoliklar, protestantlar, pravoslavlar orasida birday uchratish mumkin. Masalan, diniy ekstremistlar qayerda faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo qilish bo'lib, bunga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydi.

2) Dunyoviy ko‘rinishdagi buzg‘unchi g‘oyalar:

Bolshevizm — siyosiy avantyuristlar va hokimiyatparastlarning o‘ta reaksiya, insoniyat uchun zararli va xavfli bo‘lgan siyosiy hokimiyatni egallab olish va davlat boshqaruvining vayronkor shakli. Buyuk davlatchilik shovinizmi — bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o‘rnatishga qaratilgan vayronkor nazariya va amaliyot.

3) Aralash ko‘rinishdagi buzg‘unchi g‘oyalar:

Aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizm, fundamentalizm kabi buzg‘unchi g‘oyalar diniy va dunyoviy shakllarda namoyon bo‘ladi. Islom Karimov aqidaparastlik haqida shunday degan edi: “Aqidaparastlik esa, u qanday qiyofada bo‘lishidan qat’i nazar – bu diniy aqidaparastlik bo‘ladimi yoki kommunistik aqidaparastlik bo‘ladimi – o‘z mafkurasiga, hayot qarashlariga mos kelmaydigan hamma narsani inkor etadi va “kimki biz bilan emas ekan, demak, u bizga qarshi” degan tamoyil asosida ish ko‘radi” [1.183].

Buzg‘unchi g‘oyalarning umumiy yo‘nalishlari:

Siyosiy sohadagi buzg‘unchi g‘oyalarga avtoritarizm, agressiya, anarxizm, antagonizm, bolshevizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, byurokratiya, bo‘lib tashlab, hukmronlik qilish, volyuntarizm, gegemonizm, genotsid, imperializm, kosmopolitizm, militarizm, rangli inqiloblar g‘oyasi, totalitarizm, fashizm, shovinizm kabilar kiradi. Ijtimoiy sohadagi buzg‘unchi g‘oyalar esa apatiya, vatanfurushlik, vigilantizm, giyohvandlik, dezinformatsiya, demagogiya, diskriminatsiya, irqchilik, kashandalik, konformizm, korrupsiya, ksenofobiya, loqaydlik, manqurt(lik), marginalizm, mahalliychilik, millatchilik, milliy biqqlik, milliy mahdudlik, natsizm, nigilizm, pannatsionalizm, pessimizm, populizm, poraxo‘r(lik), radikalizm, sotqinlik, toksikomaniya, fatalizm, radikal feminizm, xudbinlik, xudkushlik, egoizm, egotsentrizm, etnotsentrizm kabilar kiradi. Diniy sohadagi buzg‘unchi g‘oyalar diniy aqidaparastlik, diniy ekstremizm, dogmatizm, islom fundamentalizmi, missionerlik, prozelitizm, separatizm, terrorizm, fanatizm, fundamentalizm, xalqaro terrorizm, shaytoniylik kabilar kiradi. Ma’naviy-axloqiy sohadagi buzg‘unchi g‘oyalarga amoralizm, individualizm, besoqolbozlik (gomoseksualizm), bir jinsli nikoh, ludomaniya, mazoxizm, narsizm, pornografiya, sinizm (uyatsizlik), eskapizm (mas’uliyatdan qochish) kabilarni kiritish mumkin. Madaniy sohadagi buzg‘unchi g‘oyalarga vandalizm, varvarlik, vesternizatsiya, vulgarizm, gedonizm, globalizm, “ommaviy madaniyat”, sadizm, starizm, submadaniyat, urfparastlik, chegaralanmagan erkinlik g‘oyasi kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiy sohadagi buzg‘unchi g‘oyalarga banditizm (bosqinchilik, talonchilik), buyumparastlik, iqtisodiy fundamentalizm, iqtisodiy terror, korrupsiya, poraxo‘rlik va boshqalarni kiritish mumkin.

Tadqiqotchi M.Yuldasheva bunday g‘oya va mafkuralarni sinflarga ajratish uchun asos sifatida ta’sir nishonlari, ya’ni buzg‘unchilik obyektini oladi va quyidagi guruhlar ajratadi: 1. Jamiyat

va shaxs ma'naviyatiga tahdid soluvchi g'oyalar; 2. Irqiy, diniy, etnik, milliy tenglikka hamda xalqning ozod yashash huquqiga qarshi qaratilgan g'oyalar; 3. Davlat yoki millatning ijtimoiy, hududiy, ma'naviy yaxlitligiga qarshi qaratilgan g'oyalar; 4. Davlatning suvereniteti, ozodligi va erkin yashash huquqiga qarshi qaratilgan g'oya va mafkuralar. Yuqoridagi tasnif, garchi mukammal bo'lmas-da, buzg'unchi, yovuz mafkura va g'oyalarni ma'lum bir asosda guruhlariga ajratish imkonini beradi[2.12-13].

Buzg'unchi g'oyalarning jamiyatni qamrab olishga intilish yoki makon nuqtai nazaridan ham tasniflash mumkin.

Buzg'unchi g'oyalarning makoniga ko'ra tasnifi o'z g'oyaviy ta'sirni barcha tarafdorlariga yetkazishga imkon beruvchi global, iqtisodiy va axborot tizimining zamonaviy bosqichdagi o'ziga xosliklariga bog'liqdir. Ommaviy kommunikatsiyaning zamonaviy vositalari ham alohida insonning, ham tarixiy shakllangan siyosiy, diniy, milliy va ijtimoiy madaniy institutlarning butun guruhlarini dunyoqarashini shakllantirishga imkon beradi. Shunga bog'liq holda barcha buzg'unchi mafkuralarni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- Global (transmilliy) mafkuralar — bularning ta'siri shaxsga ta'sir ko'rsatishning an'anaviy institutlari mazmunini hisobga olmagan holda ayrim insonga tayanuvchi bo'lgan holda barcha insoniyatga tarqaladi (vesternizm, barcha global sektalar: bahoiylik, sayentologiya, krishnaitcha oqimlar, sotsio-madaniy harakatlar, tiklar, XIPPI, rastamanlar);
- Mintaqaviy mafkuralar — muayyan madaniy –geografik makon yoki birgina davlat, etno-milliy hamjamiyat va h.k. bilan cheklangan mafkuralar (“skinxed” neofashistik oqimlari, “Akromiyalar”, “Beloye-Bratstvo”) soxta-diniy oqimlar;

Buzg'unchi g'oyalarning zamoniga ko'ra tasnifiga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Ibtidoiy-mifologik ko'rinishdagi buzg'unchi g'oyalar: Ibtidoiy mifologiyada hayot va o'lim, tabiat va madaniyat, ayol va erkaklar orasidagi muhim aloqalarning noto'g'ri talqinlari bo'lgan. Mifologiyaning bunday qarama-qarshiliklarini tahlil qilish g'oyalar tarixining qadimgi bosqichini o'rganishda muhim hisoblanadi. Xususan, bu tahlil ibtidoiy jamoalar hayotida g'oyaviy tasavvurlarning rolini aniqlashga imkon yaratadi.

O'rta asrlarga xos buzg'unchi g'oyalar: Tarixda «Salb yurishlari» nomini olgan urushlardan ham asosan missionerlik maqsadlari ko'zlangan edi. Inkvizitsiya - katolik cherkovi tomonidan erkin fikrli shaxslarga, papa hokimiyatining g'oyaviy dushmanlariga qarshi kurashish maqsadida XIII asrda tuzilgan maxsus sud muassasasi edi.

Globalashuv jarayonlarga aloqadorlik maqomiga ko'ra buzg'unchi g'oyalarni globalashuvni yoqlovchi va antiglobalist g'oyalarga ajratish mumkin. Mohiyatiga ko'ra, proglobalistik mafkuralar, xususan, an'anaviy jamiyat qadriyatlarini parchalashga qaratilgan siyosiy, diniy-mistik ta'limotlar liberalizm, kosmopolitizm, eskapizm, bahoiylik, “ommaviy madaniyat” ko'rinishidagi ma'naviy tahdidlar globalashuvni yoqlovchi g'oyalardir. Masalan,

kosmopolitizm g'oyasi dunyo fuqaroligini da'vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an'ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg'usidan voz kechishni ilgari suradi. Mondializm esa, butun yer kurrasida davlatlar ustidan hokim bo'lgan qonunlar va federativ tuzilma o'rnatishga mo'ljallangan, Yer kurrasida birdamlikning ommalashuvini ifodalovchi harakatdir.

Millat, diniy e'tiqod, madaniyat, joy, muayyan ijtimoiy maqom kabilarni mutlaqlashtirishni nazarda tutadigan buzg'unchi g'oyalar esa globallashuv jarayonlarini yoqlamaydi. Hozirgi zamon fani, texnika va texnologiyasi shunday sur'atlar bilan rivojlanmoqdaki, bunday sharoitda o'z millati uchun munosib xizmat qilish uchun milliy biqlik qobig'idan chiqib, barcha millatlar bilan yaqindan munosabatda bo'lish, ulardagi fan-texnika, ijtimoiy hayotni tashkil qilishning samarali yangiliklarini qabul qilish ham zarur. Yoki ko'pincha o'zaro aloqada bo'luvchi etnik guruhlar va millatlarning manfaatlari va ehtiyojlari bir-biriga mos kelmasligi natijasida yuzaga chiqadigan ziddiyatlar keskin "millatchilik" ko'rinishlarining kuchli omillari bo'lishi mumkin. Bularning barchasi globallashuvni inkor etadi.

Buzg'unchi mafkuralar asosiy dunyoqarash manbalaridan asosiy shartlarni o'zlashtirib oladi, shu asnoda asosiy mafkuraning u yoki bu qoidalarini, ramzlari, atamaları va g'oyalarini talqin qilish jiddiy tarzda buzg'unchi talqinga aylanib ketishi mumkin.

Asosiy mafkura yoki asosiy tamoyiliga ko'ra diniy yo'nalishdagi buzg'unchi g'oyalarga ma'naviy qadriyatlarga jamoaviylik, vatanparvarlikka tayanish, shaxsiy muvaffaqiyat va moddiy farovonlik liberal konsepsiyalarini rad etish, o'z-o'zini qurbon qilish tushunchasi xos bo'lib, ularning g'oyalari diniy manbalarga tayanadi. Ularga misol tariqasida «Vahhobiylik», «Hizbut tahrir», «Nurchilar», «Turkiston islom harakati», «Akromiylar» oqimlarini keltirish mumkin. Mazkur sektalarning mafkuralari O'zbekiston uchun an'anaviy bo'lgan ma'naviy, madaniy va tarixiy qadriyatlarni soxtalashtirgan holda o'z tashkilotlariga yangi ishtirokchilarni jalb qilish uchun islomning asosiy qoidalarini niqob qilib oladi [3.35.]. Shuningdek, diniy yo'nalishdagi buzg'unchi g'oyalarga provaslaviye, katolik, yahudiy, protestantlik kabi dinlardagi buzg'unchi g'oyalarni ham kiritish mumkin. Masalan, protestantcha mehnat axloqi tushunchasi, asosiy qadriyat sifatidagi shaxsiy moddiy muvaffaqiyat, shaxsiy diniy erkinlik tamoyili, insonning Xudo oldidagi shaxsiy javobgarligi borasidagi soxta talqinlar Serkov Xrista», sayentologiya, «Nyu Eydj» zamonaviy okkulstik oqimlar faoliyatining asosidir. Ular shaxsiy muammolarini (salomatlik, oila, moddiy qiyinchiliklar va h.k) imkon qadar tez hal qilishdan manfaatdor bo'lgan eng iqtisodiy faol kishilar qatlamlarining manfaatlarida ifodalanuvchi liberal-individualistik qadriyatlarni asoslash uchun protestantlik tushunchalaridan foydalanadi.

Mazkur tasnifda etatizm (fashizm, avtoritarizm, monarxizmning keskin nazariyalari) ham mavjud bo'lib, ularning asosiy shart-sharoitlari jamiyat xayotida davlat idoralarining rolini

mutlaqlashtirish, sakralizatsiya, hokimiyatni ilohiylashtirish, antiliberalizm, fuqarolikning zaruriy huquq va erkinliklarini rad etish, militarizm tamoyillariga asoslanadi. Bu yo‘nalishdagi buzg‘unchi g‘oyalarni turli davlatlardagi fashistcha partiyalar, millatchi monarxistlik uyushmalar amalga oshiradi. Mazkur mafkuralar insonning himoyaga (jismoniy, ijtimoiy) bo‘lgan ehtiyojlariga tayanadi va kuchli davlat (rahbar shaxsi) hamda shaxs tushunchasini ilohiylashtiradi[4.36.].

Irqchilik, millatchilik yo‘nalishidagi buzg‘unchi g‘oyalar ham mazkur tansnifning bir qismidir. Ulardagi asosiy tamoyillar irqning ijtimoiy, biologik va boshqacha notengligi, shaxs salbiy ijtimoiy xatti-harakatining irqiy kelib chiqqanligi, sotsial-darvinizm tamoyillaridir.

Bu o‘rinda hinduizm, buddizm, sharqona oqimlardagi ayrim tamoyillarni mazkur tasnifga kiritish mumkin. Masalan, buddizmdagi “sanskra” tamoyili, insonning yerdagi hayoti azobdan iboratligi, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish imkoniyatining rad etilishi voqelikni nafaol qabul qilmaslik konsepsiyasi, eskapizm xos bo‘lib, ular MOCK Neoinduist sekta, “Transsendental meditatsiya” kabi oqimlar faoliyatida kuzatiladi. Mazkur sektalar G‘arbiy tamaddunning ijtimoiy norozi qatlamlari o‘rtasidagi sharqona madaniyatga qiziqishdan foydalanadi.

Bunday mafkuralarda militaristcha undovchi ko‘rsatmalar, jamiyatga armiya sifatida, shaxsga esa askar sifatida munosabatda bo‘lish mavjud. Bunday turdagi mafkuralar tajovuzkor urushlar (fashizm, natsional-sotsializm), yoki “ichki dushmanlarni” ta‘qib qilish (Germaniya va Italiyadagi natsizm va fashizm, Xitoydagi “madaniy inqilob” davridagi maoizm, Erondagi Xumayniy zamonidagi islom fundamentalizmi) zaruratini nazariy asoslab beradi.

Oqibatiga ko‘ra buzg‘unchi g‘oyalarni mutlaq buzg‘unchi va nisbatan buzg‘unchi g‘oyalarga ajratish mumkin. Masalan:

- Fashizm — mutlaq buzg‘unchi sifatida jamiyatdagi har qanday ijtimoiy aloqalar va institutlarning buzilishiga xizmat qiladigan, umuman jamiyatning rivojlanishi, hatto, yashashiga imkon qoldirmaydi. Bu g‘oya millatlarni oliy va quyi millatlar, mukammal va “nomukammal” xalqlarga ajratadi, nemislar boshqa millatlar ustidan ularning qarshiligini shafqatsizlik bilan bostirgan holda hukmronlik qilishi, siyosiy sohada – antidemokratik tartibot, partiya tomonidan harbiy tashkilot tamoyillari bo‘yicha barpo etilgan keskin markazlashgan rahbarlik qiluvchi dohiyning (fyurer, duche, kaudilo) cheksiz hokimiyati hamda iqtisodiyot va siyosiy sohaning harbiylashtirilishi kabilar.

Avtoritarizm, agressiya, anarxizm, antagonizm, bolshevizm, fashizm kabi siyosiy sohadagi buzg‘unchi g‘oyalar ijtimoiy sohadagi apatiya, vatanfurushlik, vigilantizm, giyohvandlik, dezinformatsiya, demagogiya, kashandalik, konformizm, korrupsiya, ksenofobiya, milliy biqqlik, milliy mahdudlik, pessimizm, populizm kabi buzg‘unchi g‘oyalardan xatarliroq va xavf-xatar doirasi ham kengroqdir. Shuningdek, yuqorida noit keltirilgan ijtimoiy sohadagi buzg‘unchilik ko‘rinishlarining xavfi amoralizm, individualizm, gomoseksualizm, bir jinsli

nikoh, ludomaniya, mazoxizm, narsizm, pornogrifiya, sinizm (uyatsizlik), eskapizm kabi g'oyaviy tahdidlardan kuchliroqdir.

Buzg'unchi g'oyaning ta'sirining hajmi va qamrovi bo'yicha quyidagi shakllarni ko'rsatish mumkin: 1) individual (sadizm, nekrofiya, suitsid, fanatizm); 2) guruhga oid (xippilar, nurchilar, mahalliychilik); 3) partiyaviy (kommunizm, neokommunizm, sotsial-natsionalizm); 4) milliy (millatchilik, irqchilik, milliy gegemonlik); 5) davlat mafkurasi (barcha etatistik mafkuralar); 6) tamaddunga oid (globalizm).

Xullas, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlarni buzishga qaratilgan g'oya buzg'unchi hisoblanadi. Ushbu tushuncha xilma xil nazariyalar, qarashlar, me'yorlar, qadriyatlar va ularni jamiyatda tarqatish usullaridan iborat tizim sifatida muayyan ijtimoiy guruhning manfaatlarini ifodalaydi. Buzg'unchi mafkurani keng ma'noda, mavjud ijtimoiy munosabatlarni buzishga qaratilgan, deb ta'riflasak, tor ma'noda, har qanday ijtimoiy munosabatlar va institutlarni buzishga yo'naltirilgan, jamiyatning rivojlanishiga qarshi turadigan mafkuralar buzg'unchi omil sifatida tushuniladi.

Buzg'unchi g'oyalarning vayronkorlik ta'siri va o'ta salbiy oqibatlarini hisobga olish uchun ularni ilmiy tavsiflash va tasniflash lozim. Bu, o'z navbatida ularning vujudga kelishi, amaliyoti qonuniyatlarini hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy o'rganish, ushbu yo'nalishdagi dolzarb vazifalarni belgilash, ularni hal qilishning samarali usullarini izlab topish imkonini beradi.

Buzg'unchi g'oyalar jamiyatda mafkuraviy, ma'naviy inqirozning asosiy sababchisi bo'lib qolaveradi. Bundan tashqari, bilib yoki bilmagan holda ommaviy ongga kiritilayotgan buzg'unchi g'oyaviy maqsadlar, misol uchun so'nggi vaqtda tiqishtirilayotgan G'arbcha qadriyatlar aholining katta qismi uchun begonaligi sababli ba'zi mafkuraviy, ma'naviy muammolar kelib chiqmoqda.

Xalqimiz jamoaviy tabiatli ekanligi bois, azaldan birlashishga moyil bo'lib kelgan. Ammo, bu birlashish aksariyat hollarda muayyan urug', hudud, qavm doirasidan yuqoriga chiqa olmagan. Tashqi dushmanlar esa, xalqimizning ana shunday tarqoq birlashuvlaridan ustalik bilan foydalanib kelganlar. Bir urug' yoki muayyan xududga qilingan tahdidni boshqa urug' o'ziga keyinroq muqarrar keluvchi tahdid tarzida yetarli darajada anglamagan. Bugungi kunda ham xalqimizni milliy parokandalikka uchratish, mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikka rahna solmoqchi bo'layotgan buzg'unchi g'oya va mafkuralarning real tahdidi mavjud. Mana shunday tahdidlarga qarshi kurashda milliy mafkuramizning hayotiy g'oyalari mustahkam ma'naviy tanch va suyanch vazifasini o'taydi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. – T.13. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 448 b.
2. Yuldasheva M. Hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar namoyon bo‘lishining xususiyatlari va ularning oldini olish yo‘llari. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent: 2010. - 24 b.
3. Yuldasheva M. Hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar namoyon bo‘lishining xususiyatlari va ularning oldini olish yo‘llari. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent: 2010. - 24 b.
4. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati / Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. – 760 b.
5. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati / Q Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: «Akademiya» nashriyoti, 2007. – 260 b.
6. Zmarzlik H. G. Der Sozialdarwinismus in Deutschland. Ein geschichtliches Problem // Vierteljahrshefte für Zeitgeschichte, 1993. - 246-273 s.